



FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

Iste'dodlarni kashfetamiz!

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI
FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

**2025–2026-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
ASOSIY OLIMPIADANING IKKINCHI TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI**

GEOGRAFIYA (10-sinf) FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test topshiriqlari kitobi 30 ta (1–30) yopiq turdagi test topshiriqlaridan iborat.
Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball savol kitobida ko'rsatilgan.
Topshiriqlar yopiq turdagi bo'lib, ularda A, B, C va D javob variantlari berilgan.
Ishtirokchi har bir topshiriq uchun faqat bitta to'g'ri javobni tanlashi va javoblar varaqasida mos keluvchi doirachani to'liq bo'yashi kerak.

*Ajratilgan vaqt: 60 daqiqa
Savollar soni: 30 ta
Maksimal ball: 50 ball*

Ushbu savollar kitobi 4 sahifadan iborat

Fan olimpiadalari markazi
rasmiy telegram sahifasi.
@Fan_olimpiadalari_M

Olimpiada topshiriqlari
yechimlari ushbu telegram
kanalda e'lon qilib boriladi.



© Fan olimpiadalari markazi, 2025

 @muallimlar

1. [0,9 ball] Atmosferaning troposferadan keyingi qatlami nima deb ataladi?

- A) Stratosfera
- B) Termosfera
- C) Mezosfera
- D) Ionosfera

2. [0,9 ball] Yer va Quyosh oralig'idagi planetalarni toping?

- A) Mars, Venera
- B) Venera, Merkuriy
- C) Yupiter, Saturn
- D) Venera, Mars, Merkuriy

3. [0,9 ball] Kito - qaysi davlat poytaxti?

- A) Boliviya
- B) Ekvador
- C) Butan
- D) Chili

4. [0,9 ball] Ishlab chiqarishning asosan bir xil mahsulot chiqaradigan tashkiliy qismi nima deb ataladi?

- A) Markazlashuv
- B) Kooperativlashuv
- C) Migratsiya
- D) Ixtisoslashuv

5. [0,9 ball] Mezozoy erasi qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?

- A) Bo'r, Devon, Silur.
- B) Trias, Yura, Bo'r.
- C) Perm, Karbon, Devon.
- D) Yuqori, O'rta, Quyi.

6. [0,9 ball] Piskom tizmasining eng baland nuqtasi nima deb nomlanadi?

- A) Sayram
- B) Manas
- C) Beshtor
- D) Hayotboshi

7. [0,9 ball] Janubiy Amerikada aholi soni eng ko'p bo'lgan davlatni toping.

- A) Argentina
- B) Braziliya
- C) Meksika
- D) Peru

8. [0,9 ball] Marjonbuloq konidan nima qazib olinadi?

- A) Mis
- B) Uran

C) Kumush

D) Oltin

9. [0,9 ball] Agar masshtab 1 santimetrda 100 metr deb yozilsa, qanday masshtab deb ataladi?

- A) nomli masshtab
- B) sonli masshtab
- C) masshtab
- D) chiziqli masshtab

10. [0,9 ball] Norin, Qoradaryo va Sirdaryo qaysi okrugning eng katta va sersuv daryolari hisoblanadi?

- A) Chirchiq-Ohangaron
- B) Qashqadaryo
- C) Farg'ona
- D) O'rta Zarafshon

11. [1,5 ball] O'zbekistonda birinchi paxta tozalash zavodi qaysi shaharda va nechanchi yilda qurilgan?

- A) Toshkentda 1874-yilda
- B) Samarqandda 1897-yilda
- C) Navoiyda 1907-yilda
- D) Andijonda 1904-yilda

12. [1,5 ball] Berilgan davlatlardan yarimorolda joylashgan davlatlarni ajrating?

1. Italiya. 2. Germaniya. 3. Pokiston. 4. Ispaniya. 5. Norvegiya. 6. Islandiya.

- A) 1,4,5
- B) 1,3,4,5,6
- C) 1, 2,4,5
- D) 3,4,5

13. [1,5 ball] Eritreya 1993-yili qaysi davlat tarkibidan ajralib, mustaqil davlat maqomiga ega bo'ldi?

- A) Somali
- B) Efiopiya
- C) Misr
- D) JAR

14. [1,5 ball] Parlamentar respublikalar ko'proq qaysi qit'ada joylashgan?

- A) Afrika
- B) Osiyo
- C) Yevropa
- D) Janubiy Amerika

15. [1,5 ball] 1991-yilgacha sotsialistik tuzum asosida rivojlangan, keyinchalik esa undan voz kechgan Sharqiy Yevropa davlatlarini aniqlang?

- A) Slovakiya, Daniya
- B) Ruminiya, Irlandiya
- C) Vengriya, Avstriya
- D) Albaniya, Bolgariya

16. [1,5 ball] Kosonsoy, Pop, Uchqo'rg'on shaharlari qaysi viloyatda joylashgan?

- A) Andijon B) Farg'ona
- C) Sirdaryo D) Namangan

17. [1,5 ball] Kimyoviy xomashyolardan osh va kaliy tuzlari, oltingugurt qaysi konlarda mavjud?

- A) Oqbosh, Laylimkon, Xo'jaikon
- B) Muruntov, Ko'kpatas, Kuanish
- C) Ohangaron, Sharg'un, Boysun
- D) Qalmoqqir, Sariqcheku, Dalneye

18. [1,5 ball] Mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadigan, muayyan davrda mamlakat hududida yaratilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxidagi qiymati nima deb ataladi?

- A) Yalpi ichki mahsulot (YIM)
- B) Yalpi tashqi mahsulot (YTM)
- C) Yalpi milliy mahsulot (YMM)
- D) Yalpi hududiy mahsulot (YHM)

19. [1,5 ball] Quyidagi qaysi orollarda arktika iqlim mintaqasi tarkib topgan?

- 1) Shpitsbergen. 2) Aleut. 3) Novosibirsk.
- 4) Sokotra 5) Islandiya. 6) Vrangeli. 7) Irlandiya.
- 8) Nyufaundlend.

- A) 1, 3, 5, 6
- B) 2, 3, 5, 6, 8
- C) 1, 3, 6
- D) 2, 3, 5, 6

20. [1,5 ball] Viloyatlar va ularning maydoni mos ravishda berilgan javobni aniqlang.

1	Samarqand	a	111 000 km ²
2	Farg'ona	b	16 800 km ²
3	Navoiy	c	6 700 km ²

- A) 1-c, 2-b, 3-a
- B) 1-a, 2-c, 3-b
- C) 1-b, 2-c, 3-a
- D) 1-b, 2-a, 3-c

21. [2,6 ball] Qachon BMT tomonidan Irtiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi Xalqaro Konvensiya qabul qilingan?

- A) 1980 y
- B) 1975 y
- C) 1965 y
- D) 1955 y

22. [2,6 ball] Davlatlar va ularning maydoni mos ravishda berilgan javobni aniqlang.

1	Tuvalu	a	21 km ²
2	Malta	b	316 km ²
3	Nauru	c	26 km ²

- A) 1-c, 2-b, 3-a
- B) 1-c, 2-a, 3-b
- C) 1-b, 2-c, 3-a
- D) 1-b, 2-a, 3-c

23. [2,6 ball] Quyidagi berilgan davlatlardan qaysilari geotermal resurslarga boy?

- A) Papua-Yangi Gvineya, Italiya, Meksika
- B) Misr, Ummon, AQSh
- C) Meksika, Yaponiya, Bangladesh
- D) Meksika, Kanada, Kipr, Iroq

24. [2,6 ball] Matnni o'qing.

Ushbu okean shimoldan janubga katta masofada cho'zilganligidan yuzadagi suv harorati -1 °C dan +29°C gacha o'zgaradi. Ekvatorial mintaqalarda suv yuzasining harorati yil davomida +28...29°C, Bering dengizida +2...+7°C, janubiy yarimsharning o'rta kengliklarida +12...+15°C atrofida o'zgaradi. Okean suvining eng sho'r qismi tropiklarga to'g'ri keladi (36‰). Eng chekka shimoliy va janubiy qismlarida sho'rlik pasayadi (32‰). Keltirilgan ma'lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.

- A) Shimoliy Muz B) Hind
- C) Atlantika D) Tinch

25. [2,6 ball] Jahon siyosiy xaritasida 1900-yili nechta mustaqil davlat bo'lgan?

- A) 20 ta B) 31 ta
- C) 43 ta D) 57 ta

26. [2,6 ball] 100 litr okean suvidan 1500 gramm tuz olingan bo'lsa, uning sho'rliqi necha promillega teng bo'ladi?

A) 25 B) 10 C) 30 D) 15

27. [2,6 ball] O'zbekistonda 1946-yil, 1957-yil va 1998-yilda barpo etilgan sanoat korxonalari qaysi sanoat tarmog'iga tegishli?

A) Mashinasozlik B) Kimyo
C) Qora metallurgiya D) Rangli metallurgiya

28. [2,6 ball] Quyida keltirilgan qaysi mamlakatlarda aholining tabiiy ko'payishi har ming kishiga 30–40 kishidan to'g'ri keladi?

A) Misr, Janubiy Afrika Respublikasi
B) Angola, Tunis
C) Mali, Niger
D) Marokash, Tunis

29. [2,6 ball] Biologiya xonasida hajmi 200 m^3 havo bo'lib, xonaning harorati $+10^\circ\text{C}$, nisbiy namlik 50 % bo'lsa, bu havo tarkibida necha litr suv bo'lishini hisoblang?

A) 900 litr
B) 450 litr
C) 4,5 litr
D) 0,9 litr

30. [2,6 ball] O'zbekistonda viloyat va tumanlarni tuzish va tugatish, ular chegaralarini o'zgartirish qanday amalga oshiriladi?

A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan
B) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan
C) Xalq deputatlari viloyat kengashlari taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan
D) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq xalq deputatlari viloyat kengashlari tomonidan